


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 1 **2026**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 1 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 1

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 1



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-1>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun
Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

TARIX

1. Toshpolatov Bekzod Shuxratovich, Ganiyeva Nafisa Rustamkulovna ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА АЁЛЛАРНИНГ ЎРНИ ВА ГЕНДЕР ТЕНГЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ: ХАЛҚАРО ЁНДАШУВЛАР ВА ЎЗБЕКИСТОН ТАЖРИБАСИ ТАҲЛИЛИ.....	7
2. Bekzod Toshpolatov, Nafisa Ganiyeva ENSURING GENDER BALANCE IN THE EDUCATION AND SCIENCE SYSTEM: THE STRATEGIC ROLE OF WOMEN'S PARTICIPATION AND THE EXPERIENCE OF UZBEKISTAN.....	11
3. Sharopova Nigora Akbarovna UMUMTA'LIM MAKTABLARI TIZIMIDA IXTISOSLASHGAN MAKTAB-INTERNATLARI FAOLIYATI (O'ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARI MISOLIDA).....	15
4. Boboqulov Lochinbek Zikir o'g'li ANTI-K VA ILK O'RTA ASRLARDA SO'G'D VA XITOIY MADANIY ALOQALARI.....	19
5. Bekimbetov Bahodir Mirzabaevich XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA GI ILMIIY MUHOZARALARDA OROL DENGI SI MUAMMOSI: INKIROZ, OGOHLANTI RI SHLAR VA HAL QILI SH I ULLARI.....	23
6. Abdullayev Timur Pulatovich, Sapayeva Sadoqat Odilbekovna MEHNAT MIGRATSIYASI: NAZARIY YONDASHUVLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	28
7. Abdullayev Timur Pulatovich., Jabbarov Avazbek Adxambek o'g'li. MEHNAT MIGRATSIYASI VA MILLIY IDENTITET.....	34
8. Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li. QADIMGI XORAZMDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINING RIVOJIDA SAVDO YO'LLARINING O'RNI.....	40
9. Tadjiyeva Nargiza Djumabayevna. XORAZM VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTIDA TATAR DIASPORASINING TUTGAN O'RNI.....	44

FILOLOGIYA

1. Sultanova Fazilat, Ro'ziyeva Muhayyo Erkinovna MODERN PEDAGOGICAL APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES (ENGLISH LANGUAGE): A COMPETENCY-BASED PERSPECTIVE.....	48
2. Qo'shnazarova Mehribon Qo'zibayevna XORAZM TARIXNAVISLIK MAKTABI ASARLARIDA KASB-HUNAR LEKSIKASINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	52
3. Ro'zimova Dildora Khujaakhmedovna THE THEORY OF PROJECT BASED LEARNING IN TESOL.....	57

IQTISOD

1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna YASHIRIN IQTISODIIYOTNING MINTAQA IQTISODIIY O'SISHIGA SALBIY TA'SIRLARINI BARTARAF QILISH.....	61
---	----

2. Egamberdiev Egamberdi

THE ROLE OF INTEGRATED DIGITAL MARKETING STRATEGIES IN ENHANCING SME COMPETITIVENESS IN UZBEKISTAN.....65

3. Matkarimov Mansur Maksudovich

O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHNING IQTISODIY-SIYOSIY TAHLILI....69

PEDAGOGIKA VA ANIQ FANLAR

1. Yuldosheva Sabohat Norimon qizi

GEOMETRIK ISBOTLASHDA DEDUKTIV–INDUKTIV YONDASHUVLARNING UYG‘UNLASHUVI.....75

FALSAFA

1. Майлиев Азамат Фарходович

ЁШЛАР ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ВА НАНОТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ.....78

Sharopova Nigora Akbarovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti

**UMUMTA'LIM MAKTABLARI TIZIMIDA IXTISOSLASHGAN MAKTAB-
INTERNATLARI FAOLIYATI (O'ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARI MISOLIDA)**



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18519496>

Annotatsiya: Mamlakatlar rivoji yoshlarning qay darajada bilimli ekani bilan bevosita bog'liq. Shu bois, ta'lim tizimini rivojlantirish masalasiga hukumat darajasida e'tibor qaratilishi har bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi. Maqolada O'zbekiston janubiy viloyatlarida umumta'lim maktablarida ixtisoslashgan maktab-internatlari faoliyati haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, umumta'lim maktablari, ixtisoslashgan maktab-internatlari, litseylar, maktab-gimnaziyalar, ta'lim islohotlari, janubiy viloyatlar.

Шаропова Нигора Акбаровна
доцент Университета экономики и педагогики

**ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ШКОЛ-ИНТЕРНАТОВ В
СИСТЕМЕ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ (НА ПРИМЕРЕ ЮЖНЫХ
РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА)**

Аннотация: Развитие государств напрямую связано с уровнем образованности молодёжи. В связи с этим развитие системы образования является одной из приоритетных задач каждого государства на уровне государственной политики. В статье представлена информация о деятельности специализированных школ-интернатов при общеобразовательных школах в южных регионах Узбекистана.

Ключевые слова: образование, общеобразовательные школы, специализированные школы-интернаты, лицеи, школы-гимназии, образовательные реформы, южные регионы.

Sharopova Nigora Akbarovna
Associate Professor, University of Economics and Pedagogy

**THE ACTIVITIES OF SPECIALIZED BOARDING SCHOOLS WITHIN THE
SYSTEM OF GENERAL SECONDARY EDUCATION (A CASE STUDY OF THE
SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN)**

Abstract: The development of countries is directly linked to the level of education of young people. Therefore, improving the education system is a key priority at the governmental level in every state. The article provides information on the activities of specialized boarding schools within general secondary schools in the southern regions of Uzbekistan.

Keywords: education, general secondary schools, specialized boarding schools, lyceums, gymnasium schools, educational reforms, southern regions.

Dolzarbliigi. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ta'limga mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotning muhim sohasi sifatida katta e'tibor qaratildi. Ixtisoslashgan maktablar faoliyatini yo'lga qo'yish jarayoni O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarda ma'lum bir soha bo'yicha chuqur bilim va ko'nikmalar shakllantirish, shuningdek, xalqaro standartlarga mos ta'lim berish maqsadida amalga oshirilmoqda, bunda chet el tajribalarini o'zlashtirish, zamonaviy o'quv dasturlarini joriy etish, malakali o'qituvchilarni jalb qilish hamda o'quv-uslubiy resurslarni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu turdagi maktablarning asosiy maqsadlari ta'lim, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida yuqori natijalarga erishgan o'quvchilarni aniqlash, o'quv dasturlarini Prezident maktablari dasturlari bilan uyg'unlashtirish va yuqori malakali pedagog kadrlar jalb etish, matematika, kimyo, biologiya, axborot tizimlari, fizika va chet tillari kabi aniq fanlarga chuqur o'rgatishga qaratilib, tizimli tahlil, kreativ va tanqidiy fikrlash, loyihalarni boshqarish ko'nikmalariga o'rgatish hamda har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalashdan iborat. O'zbekiston janubiy viloyatlarida ham mustaqillik natijasida ta'lim-tarbiya muassasalarida miqdor va sifat o'zgardi, umumiy maktablar bilan bir qatorda maxsus ixtisoslashgan maktablar, litsey va gimnaziyalar tashkil etildi, yangi turdagi ta'lim muassasalarini ochishga alohida e'tibor berildi.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi. 1993-1994 o'quv yili mobaynida Surxondaryo viloyatida tashkil etilgan 6 ta litseyda 1000 nafar o'quvchi, maktablar qoshidagi litsey sinflarida 541 nafar o'quvchi, 443 ta maktabda esa chuqurlashtirilgan reja asosida 1996 nafar o'quvchi tahsil oldi[1, 343]. Demak, 1991-1997 yillarda yangi turdagi ta'lim muassasalari va sinflar faoliyatini O'zbekiston umumta'lim tizimidagi yangicha bir yondashuv sifatida baholash mumkin.

1995 yil Surxondaryo viloyatining Denov shahridagi M.Lomonosov nomli 1-o'rta maktabda viloyatda birinchi marta maktab-gimnaziya sinfi tashkil etilib, o'qituvchilar bilim saviyalari va iqtidorlari bo'yicha tanlandi. O'quvchilarga badiiy, tasviriy san'at, informatika va hisoblash texnikasi hamda ingliz tili bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim berildi. Ta'lim berishning yangi shakli hisoblangan litseylar tashkil qilish borasida ham anchagina ishlar yo'lga qo'yildi. Jumladan, 1995 yilda Termiz shahridagi Navoiy nomli 11-o'rta umumiy ta'lim maktabida kimyo-biologiya fanlariga ixtisoslashgan maxsus litsey-sinf tashkil qilindi[1, 344].

Qashqadaryo viloyati shahar va tumanlarida ham shu turdagi ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yildi. 1993-1994 o'quv yilida Qashqadaryo viloyatida 6 ta maxsus maktab-internatlar bo'lib, ularda 1234 bola tarbiyalandi. Kar va sust eshituvchi bolalar maxsus internati (250 o'quvchi), aqliy jihatdan kam rivojlangan va aqliy zaif bolalar internati (300 o'quvchi), ko'zi ojiz bolalar maxsus maktab-internati (352 o'quvchi), sil kasalligi bilan og'rigan bolalar maktab-internati (350 o'quvchi), suyak kasalligi bilan og'rigan bolalar maktab-internati (282 o'quvchi) shular jumlasidandir. Shuningdek, viloyatda uchta bolalar uylari faoliyat ko'rsatib, ularda 200 bola tarbiyalandi[2]. Mazkur tarbiya maskanlarida ham mustaqillik davri ta'lim islohotlari o'z aksini topdi.

Shahrisabz tumanidagi G'.G'ulom nomli 33-o'rta maktab 844 o'rinli yangi maktab binosiga ko'chirib o'tganligi, maktab o'quv-moddiy bazasining talab darajasida ekanligi, o'quv xonalari yetarli, yotoqxona, o'quvchilarning ovqatlanishi uchun sharoitlar mavjudligi, mutaxassis kadrlar bilan to'liq ta'minlanganligi, tuman maktablarida fizika, matematika, kimyo, biologiya, o'zbek tili va adabiyoti fanlari bo'yicha 7-sinflarni bitirgan iqtidorli bolalarni tanlab olish imkoniyatining mavjudligi hisobga olinib, 1992-1993 o'quv yilidan boshlab maktab bazasida litsey maktabi tashkil etildi. Litsey maktabida 7-sinflar uchun fizika, matematika, kimyo, biologiya, o'zbek tili va adabiyoti fanlari chuqur o'qitiladigan 5 ta sinf tashkil etildi[3].

Tadqiqot natijalari. Tuman hokimlari va viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tuman markazlaridagi mavjud litsey, maktab-internatlari ishini qaytadan ko'rib chiqib, qo'shimcha o'quv binolari, yotoqxona, oshxonalar va jihozlar bilan ta'minlandi. Dehqonobod tumani markazida va Chiroqchi tumanining Ko'kdala qishlog'ida litsey-internat maktablari tashkil etildi[4]. Litsey

maktab-internatlariga asosan uzoq qishloq maktablaridan iqtidorli o'quvchilar tanlov asosida qabul qilinishi belgilandi. Maktab-internatlar yo'nalishi tumandagi kadrlarga bo'lgan ehtiyojga qarab tuman hokimligi va viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan belgilandi[4]. Qarshi shahrida 1995 yili tashkil etilgan Nodirabegim nomidagi 2-sonli ixtisoslashgan umumiy o'rta ta'lim maktab-internati viloyatdagi eng nufuzli ta'lim maskanlaridan biri. Muassasada 1995 yildan uzluksiz ta'lim joriy etilib, o'quvchilar 1-sinf dan 11-sinf gacha 2- yoshdan 17-yoshgacha uzluksiz ta'lim-tarbiya oldi. Sinf ochishda ko'pgina maqsadlar ko'zda tutilgan edi. Bular:

- uzluksiz ta'limni joriy etish;
- o'quvchining maktab hayotiga qiyinchiliksiz o'rganishini ta'minlash;
- har bir o'quvchining qobiliyatini rivojlantirish ustida ishlash;
- o'quvchilarni kasbga yo'naltirib, ta'lim tizimi va ishlab chiqarish hamkorligini amalga oshirish;
- ishlaydigan ota-onalarga qulaylik yaratish edi.

Shuning uchun ham maktab jamoasi barkamol avlodni voyaga yetkazish, ta'limni tubdan isloh qilish, ta'lim-tarbiya sohasiga zamonaviy yangiliklarni kiritish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishni – o'zining asosiy vazifasi deb biladi. Maktab-internatida 26 ta sinf mavjud bo'lib, unda 702 nafarga yaqin o'quvchi uzluksiz ta'lim-tarbiya oldi. Maktabda 8 ta rus va 18 ta o'zbek sinflar faoliyat ko'rsatdi. Maktab-internati asosan matematika va ingliz tili fanlariga ixtisoslashtirilgan bo'lib, maktabda 64 nafar pedagoglardan 20 nafari oliy toifali, 18 nafari birinchi, 18 nafari ikkinchi toifali o'qituvchilar edi[5].

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida iqtidorli yoshlarni tanlash va tarbiyalash b'oyicha qator tadbirlar amalga oshirildi. 21 foiz o'quvchilar chuqurlashtirilgan sinflarda o'qitildi. 21 ta litsey, 6 ta gimnaziya faoliyat ko'rsatdi. Shu bilan birga, ko'pchilik maktablarda, ayniqsa uzoq qishloq maktablarida o'qituvchilar yetishmasligi o'quvchilarning yaxshi bilim olishiga salbiy ta'sir qildi. Jumladan, Muborak, Bahoriston, U.Yusupov, Chiroqchi, Dehqonobod tumanlarida bunday ahvol ko'proq ko'zga tashlanadi. Natijada shu tumanlardan va qishloqlardan o'quv yurtlariga kiruvchilar soni kam bo'ldi[4].

2016 yil Mustaqillikning 25 yilligi arafasida "O'zbekiston qahramoni" unvoniga sazovor bo'lgan 4 nafar nomzodlardan biri Qarshi shahridagi 2-ixtisoslashtirilgan maktab-internatining matematika fani o'qituvchisi Muhabbat Sharapova bo'ldi[7]. U 1949 yilda Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahrida tug'ilgan bo'lib, 1971 yilda Samarqand davlat universitetining mexanika-matematika fakultetini tamomladi. Mehnat faoliyatini Qarshi shahridagi 5-o'rta maktabda o'qituvchilikdan boshladi. 2000 yildan Qarshi Davlat 2-son ixtisoslashtirilgan maktabgacha va umumta'lim maktab internati oliy toifali matematika o'qituvchisi bo'lib faoliyat olib bordi. U 2002 yilda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan umumta'lim maktablari uchun darsliklarni yangi avlodini yaratish maqsadida e'lon qilingan tender doirasida 7-sinf geometriya darsligi (mualliflar B.Xaydarov va boshqalar) bo'yicha o'qituvchilar uchun yangi o'quv dasturiga asoslangan uslubiy qo'llanma yaratishda ishtirok etdi. Shuningdek, u yosh o'qituvchilar va yuqori sinf o'quvchilari uchun 5 ta uslubiy qo'llanma yaratdi. Uning 2010 yil matematika chuqur o'rganiladigan sinflarda "Ko'pxadlar" va "Funktsiyalar" boblarini o'tishga oid uslubiy qo'llanmasi, 2011 yil "Trigonometriya tarixi haqida ma'lumot" qo'llanmasi, 2012 yil 5 sinf matematika darsligiga ilova tariqasida "Masalalar to'plami" qo'llanmalari chop etilgan. Bu qo'llanmalar viloyat miqyosida ommalashtirilgan. Uning tashabbusi bilan viloyat va shahar o'quvchilariga DTS talablari va yangi darsliklarning metodik xususiyatlarini yetkazish maqsadida 10 ga yaqin seminarlar tashkil qilindi [8].

Xulosa. O'zbekistonda keyingi yillarda innovatsion fikrlaydigan kadrlar tayyorlash, yoshlarni yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, 2019 yil 23 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi. Unda sohadagi eng dolzarb muammolar xususida fikr-mulohazalar bayon etildi. Maktab ta'limi tizimini isloh qilish zaruriyatiga to'xtalib, Prezident Sh.M.Mirziyoyev ulug'

ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktabdir" degan fikrini alohida ta'kidlab, bu masalaning mohiyati va ahamiyatiga atroflicha to'xtalib o'tadi[9].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Турсунов С., Қобилов Э., Пардаев Т. va boshq. Сурхондарё тарих кўзгусида / Авт.: -Тошкент: Шарк, 2001 йил – Б. 343.
2. O'z MA, M -26 - fond, 1 – ro'yxat, 140 - ish, 95 - varaq.
3. QVHA, 829 - fond, 1 - ro'yxat, 33 - ish, 136 -137 - varaqlar.
4. QVHA, 829 - fond, 5 – ro'yxat, 17 - ish, 27 -28 - varaqlar.
5. Qarshi davlat 2- son ixtisoslashtirilgan umumiy o 'rta ta'lim maktab -internati direktori, 1967 yil 18 yanvarda Qarshi shahri, Mahallot mahallasila tug'ilgan Xalilova Nigora Sharipovna bilan suhbat, 2020 yil 12 mart.
6. QVHA, 829 - fond, 5 – ro'yxat, 17 - ish, 27 -28 - varaqlar.
7. O'zMA, M -26 - fond, 1 – ro'yxat, 140 – ish, 101 – varaqlar.
8. O'zMA, M -26 - fond, 1 – ro'yxat, 140 - ish, 100 - varaq.
9. Mirziyoyev Sh.M. Maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur. 23 avgust 2019 yil Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqi // Xalq so'zi, 2019 yil 24 avgust. - №174.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].